



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
III-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

DUAL TA'LIM ASOSIDA TEXNIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: ELEKTR ENERGETIKASI TA'LIMI MISOLIDA.....	14
Zoxidov Ikboljon Zokirjonovich	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING SAVDO HAJMINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	20
Raxmonova Feruza Musakulovna	
MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT ARALASHUVINING IQTISODIY ASOSLARI	27
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РИСКОВ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	34
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	39
Akmaljon Valijonov	



KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Akmaljon Valijonov i.f.n.,
O'zbekiston Respublikasi
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
Tadqiqotlar markazi
ORCID: 0000-0003-4925-2236
e-mail: Valijonov1973@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimida nomoliyaviy hisobotni shakllantirish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda nomoliyaviy hisobot amaliyoti shakllanib borayotganini, biroq hisobotlarning mazmuni, qamrovi, ma'lumotlarning solishtirish imkoniyati va ishonchligi bo'yicha yagona yondashuvni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan maqolada xo'jalik jamiyatlarida nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: nomoliyaviy hisobot, barqarorlik hisoboti, korporativ boshqaruv, kompaniya, standart, investisiya.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам формирования и развития нефинансовой отчетности в системе корпоративного управления в Узбекистане. Результаты исследования показали, что практика нефинансовой отчетности в Узбекистане постепенно формируется, однако существует необходимость дальнейшего развития единого подхода к содержанию и охвату отчетности, сопоставимости и достоверности представляемой информации. В связи с этим в статье разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию формирования нефинансовой отчетности в хозяйственных обществах.

Ключевые слова: нефинансовая отчетность, устойчивое развитие, корпоративное управление, компания, стандарт, инвестиции.

Abstract. This article is devoted to the issues of developing and enhancing non-financial reporting within the corporate governance system in Uzbekistan. The results of the study demonstrate that the practice of non-financial reporting in Uzbekistan is gradually developing; however, there is a need for further development of a unified approach to the content and scope of reporting, as well as to the comparability and reliability of the information provided. In this regard, the article develops proposals and recommendations aimed at improving the preparation of non-financial reports in business entities.

Keywords: non-financial reporting, sustainable development, corporate governance, company, standard, investment.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv tushunchasi kompaniyaning faqat moliyaviy natijalarini boshqarish bilan cheklanmaydi. Investorlar, kreditorlar, davlat organlari, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar kompaniyaning atrof-muhitga ta'siri, mehnat munosabatlari, korporativ madaniyati, korrupsiyaga qarshi siyosati, inson huquqlariga munosabati, iqlim xavflarini boshqarishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasi haqida ham ishonchli ma'lumot olishni istaydilar. Shu nuqtai nazardan nomoliyaviy hisobot korporativ boshqaruvning muhim axborot mexanizmiga aylanib bormoqda.

Nomoliyaviy hisobot orqali kompaniya faoliyatining iqtisodiy natijalaridan tashqari ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlari haqida ma'lumot taqdim etiladi. Bunday ma'lumotlar kompaniyaning jamiyat va atrof-muhit oldidagi mas'uliyatini baholash, mavjud xavflarni aniqlash va manfaatdor tomonlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi.



Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimida nomoliyaviy hisobotning shakllanishi va rivojlanish holatini tahlil qilish hamda xalqaro tajribani hisobga olgan holda uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nomoliyaviy hisobotning nazariy asoslari korporativ ijtimoiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish, manfaatdor tomonlar nazariyasi, korporativ shaffoflik va axborot asimmetriyasini kamaytirish konsepsiyalari bilan bog'liq.

Integratsiyalashgan hisobotlar orqali axborotni oshkor qilish masalalari Hassan A., Györi Z., Abdelrahman R.X. [1], korporativ ijtimoiy mas'uliyat to'g'risida hisobotlar Khan M., Lockhart J., Bathurst R. A. [2], barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotlar tayyorlash masalalari Adams C.A. [3], nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishning xorij tajribasi Levina V.S. [4], nomoliyaviy hisobotlar tushunchasi va ularni shakllantirishni tartibga solish masalalari Gafurova D.A. va Korneyeva T.A. [5] ning asarlarida tadqiq etilgan. O'zbekistonda nomoliyaviy hisobotlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari hali yetarli darajada rivojlanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda GRI (Global Reporting Initiative — Global hisobot tashabbusi) standartlari tashkilotning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlarini keng qamrovda ochib berish imkonini beradigan muhim yondashuv hisoblanadi. GRI yondashuvining asosiy xususiyati kompaniyaning faoliyati natijasida jamiyat va atrof-muhitda yuzaga keladigan ta'sirlarni kengroq yoritishga qaratilganidir.

SASB (Sustainability Accounting Standards Board — Barqarorlik hisoboti standartlari kengashi) yondashuvi turli iqtisodiy tarmoqlar uchun investorlar nuqtai nazaridan muhim bo'lgan barqarorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Energetika, bank, transport yoki sanoat kompaniyalari uchun muhim bo'lgan ekologik va ijtimoiy omillar bir-biridan farq qilishi mumkin. Shu sababli sohaviy yondashuv kompaniyalarga aynan o'z faoliyati uchun muhim bo'lgan nomoliyaviy ma'lumotlarni ochib berish imkonini beradi.

Iqlim bilan bog'liq ma'lumotlarni ochib berishda TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures — Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni ochib berish bo'yicha ishchi guruh) tavsiyalari muhim o'rin tutgan. Ushbu yondashuv iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni korporativ boshqaruv, strategiya, risklarni boshqarish hamda ko'rsatkichlar va maqsadlar orqali yoritishga qaratilgan. Keyinchalik TCFDning asosiy tavsiyalari ISSB tomonidan ishlab chiqilgan IFRS S2 standartiga integratsiya qilindi.

Shu bilan birga, CDP (Carbon Disclosure Project — Karbon ma'lumotlarini ochib berish loyihasi)ni alohida hisobot standarti sifatida emas, balki kompaniyalar iqlim o'zgarishi va boshqa ekologik masalalar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadigan xalqaro axborot platformasi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Demak, xalqaro amaliyotda nomoliyaviy hisobotni bitta standart bilan cheklash to'g'ri emas. GRI kompaniyaning ta'sirlarini keng qamrovda ochib berishga, SASB sohaviy ko'rsatkichlarga, TCFD iqlim xavflarini ochib berishga, CDP ekologik ma'lumotlarni taqdim etishga, ISSBning IFRS S1 va IFRS S2 standartlari esa investorlar uchun muhim bo'lgan barqarorlik va iqlimga oid ma'lumotlarni ochib berishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda nomoliyaviy hisobot tizimi moliyaviy hisobot kabi barcha korxonalar uchun bir xil talablar asosida ishlaydigan to'liq shakllangan tizim darajasiga hali yetmagan. Biroq korporativ boshqaruv, davlat ishtirokidagi korxonalarning shaffofligi, ekologik mas'uliyat va ESG tamoyillari bilan bog'liq ma'lumotlarni ochib berishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda.

Dastlab kompaniyalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat va ekologik ma'lumotlarni ixtiyoriy ochib berish amaliyoti shakllangan bo'lsa, keyinchalik yirik korxonalar va davlat ishtirokidagi kompaniyalarning korporativ hisobotlarida ESG elementlari paydo bo'la boshladi. Hozirgi bosqichda asosiy vazifa nomoliyaviy ma'lumotlarni tizimlashtirish, ularni solishtirish imkonini oshirish va ekologik hamda ijtimoiy omillarni kompaniyaning strategik va moliyaviy risklari bilan bog'lashdan iborat.

O'zbekistonda ayrim yirik kompaniyalar korporativ hisobotlarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruvga oid ma'lumotlarni ochib berish amaliyotini shakllantirmoqda. Bugungi kunda bir qator yirik kompaniyalarning Veb-sahifalarida ESG hisobotlarni uchratish mumkin. Biroq kompaniyalar hisobotlarini o'zaro solishtirishda muammolar saqlanib qolmoqda.

Shu sababli O'zbekistondagi asosiy vazifa kompaniyalarni shunchaki ko'proq ma'lumot berishga undash emas, balki solishtiriladigan, tekshiriladigan va qaror qabul qilish uchun foydali bo'lgan nomoliyaviy ma'lumotlarni shakllantirish tizimini yaratishdan iborat bo'lishi kerak.



Nomoliyaviy hisobot korporativ boshqaruv samaradorligini bir nechta yo'nalishda oshirish imkonini beradi. Avvalo, kompaniyaning ESG ko'rsatkichlarini ochib berishi investor va boshqa manfaatdor tomonlarga kompaniyaning moliyaviy natijalaridan tashqari strategik holatini ham baholash imkonini yaratadi. Bu korporativ shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Nomoliyaviy hisobot risklarni boshqarishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv risklari erta aniqlangan taqdirda kompaniya ularning kelgusidagi iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, iqlim o'zgarishi energiya xarajatlari, ishlab chiqarish jarayonlari, ta'minot zanjiri va infratuzilmaga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli iqlim xavflarini korporativ risk-menejment tizimiga integratsiya qilish zamonaviy korporativ boshqaruvning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Nomoliyaviy ma'lumotlar investorlar ishonchini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Investor uchun kompaniyaning faqat bugungi foydasi emas, balki kelajakda barqaror qiymat yaratish qobiliyati ham muhimdir. Shu sababli ESG ma'lumotlari investisiya qarorlarida qo'shimcha axborot manbasi sifatida tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, nomoliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilish kompaniya rahbariyatini ekologik va ijtimoiy omillarni strategik rejalashtirish jarayoniga kiritishga undaydi. Xodimlar xavfsizligi, mehnat sharoiti, korrupsiyaga qarshi siyosat va teng imkoniyatlar kabi ko'rsatkichlarning ochiqlanishi korporativ madaniyatning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda nomoliyaviy hisobotni rivojlantirishdagi asosiy muammolardan yana biri metodologiya bo'yicha xil emasligi hisoblanadi. Kompaniyalar turli standart va yondashuvlardan foydalanishi natijasida hisobotlarning mazmuni va qamrovi bir-biridan farq qiladi. Bu esa ma'lumotlarni solishtirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli milliy uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va kompaniyalar uchun minimal ochiqlash ko'rsatkichlarini belgilash zarur.

Ikkinchi muhim muammo mutaxassislar yetishmasligi bilan bog'liq. ESG va barqarorlik hisoboti faqat buxgalteriya yoki moliya sohasidagi bilimlarni emas, balki ekologik, ijtimoiy, huquqiy va boshqaruv sohalaridagi bilimlarni ham talab qiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida ESG, korporativ boshqaruv va nomoliyaviy hisobot bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Nomoliyaviy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash tizimining yetarli darajada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p hollarda ma'lumotlar turli bo'limlar va axborot tizimlarida tarqoq holda saqlanadi. Bu esa hisobot tayyorlash jarayonini qimmat va mehnattalab qiladi. Raqamlashtirish va yagona ma'lumotlar bazasini joriy etish mazkur muammoni kamaytirishi mumkin.

Nomoliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash ham alohida ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlar kabi nomoliyaviy ma'lumotlar ham qaror qabul qilishda foydalanilayotgani sababli ularning sifatini mustaqil tashqi baholash mexanizmlarini rivojlantirishni talab etiladi.

O'zbekistonda nomoliyaviy hisobot tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlarni mexanik ravishda ko'chirish emas, balki ularning asosiy tamoyillarini milliy iqtisodiy va institusional sharoitlarga moslashtirish maqsadga muvofiq.

Milliy tizimni shakllantirishda proporsionallik tamoyili ham muhim ahamiyatga ega. Yirik davlat korxonalari, banklar, birja listingidagi kompaniyalar va tizimli ahamiyatga ega tashkilotlar uchun keng qamrovli hisobot talablarini belgilash mumkin. Kichik va o'rta korxonalar uchun esa soddalashtirilgan hisobot shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu korxonalarga ortiqcha ma'muriy xarajat yuklamasdan, hisobot qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish imkonini beradi.

Nomoliyaviy hisobotni raqamlashtirish ham muhim istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Kompaniyalar nomoliyaviy ko'rsatkichlarni standartlashtirilgan elektron shaklda kiritadigan yagona axborot platformasini yaratish ma'lumotlarni yig'ish, tekshirish, solishtirish va tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish masalasida asosiy vazifa xalqaro standartlarni to'liq ko'chirish emas, balki ularning funksional jihatlarini milliy iqtisodiyotning xususiyatlari bilan uyg'unlashtirishdan iborat ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokining yuqoriligi, strategik korxonalarining mavjudligi va kapital bozorining bosqichma-bosqich rivojlanayotgani milliy modelni shakllantirishda hisobga olinishi lozim.

Bunda davlatning roli faqat majburiy talablarni belgilash bilan cheklanmasligi kerak. Davlat organlari, biznes va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik kadrlar tayyorlash, metodik baza yaratish va raqamli infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yuqori sifatli nomoliyaviy hisobot tayyorlaydigan kompaniyalarni reyting, davlat xaridlari, investisiya jarayonlari va kapital bozorida rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin.



Nomoliyaviy hisobot zamonaviy korporativ boshqaruvning muhim axborot elementi bo'lib, kompaniya faoliyatining shaffofligi, risklarni boshqarish, manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar va uzoq muddatli korporativ qiymatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda mazkur sohada muayyan amaliyot shakllanib borayotgan bo'lsa ham, hisobotlarning mazmuni va sifati bo'yicha yagona yondashuvni takomillashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda nomoliyaviy hisobotning keyingi rivojlanishi uning standartlashtirilishi, ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash, mutaxassislar salohiyatini oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va tashqi ishonch bildirish mexanizmlarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xalqaro standartlar va yondashuvlar asosida bosqichma-bosqich hisobot tizimini shakllantirishdan iborat. Bunda birinchi navbatda milliy metodik bazani yaratish, yirik va davlat ishtirokidagi korxonalarda ilg'or hisobot amaliyotini rivojlantirish, raqamli platforma yaratish, mutaxassislar tayyorlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, nomoliyaviy hisobotni korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish nafaqat hisobot berish talablarini takomillashtirish, balki korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, risklarni strategik boshqarish, investorlar ishonchini oshirish va O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro investisiya muhitidagi raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim vositasi sifatida qaralishi lozim.

O'zbekistonda nomoliyaviy hisobot tizimini rivojlantirish uchun milliy uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va ularda kompaniyalar uchun asosiy ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'rsatkichlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Nomoliyaviy hisobot sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish kurslarida ESG, barqarorlik hisoboti va korporativ boshqaruv bo'yicha maxsus dasturlarni joriy etish zarur.

Kompaniyalarda nomoliyaviy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashni raqamlashtirish, kelgusida esa yagona elektron hisobot platformasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Nomoliyaviy hisobotlarning ishonchlilikini oshirish uchun tashqi baholash mexanizmlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ayniqsa yirik va davlat ishtirokidagi korxonalarda ochib berilayotgan ma'lumotlarni mustaqil baholash amaliyotini kengaytirish zarur.

Shuningdek, nomoliyaviy hisobotni yuqori sifatda taqdim etadigan kompaniyalarni rag'batlantirish, investorlar va jamoatchilikning ESG ma'lumotlariga bo'lgan talabini oshirish hamda korporativ boshqaruv tizimida barqarorlik masalalarini kuzatuv kengashi darajasida nazorat qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hassan, A. N. O. Sustainable Development Goals Disclosure Practices through Integrated Reporting: An Empirical Analysis on European Financial Institution / A. N. O. Hassan, Z. Györi, R. E. K. Abdelrahman. – URL: <https://www.semanticscholar.org/paper/Sustainable-Development-Goals-Disclosure-Practices-Hassan4>.
2. Khan, M. A multi-level institutional perspective of corporate social responsibility reporting: A mixed-method study / M. Khan, J. Lockhart, R. Bathurst // Journal of Cleaner Production. – 2020. – Vol. 265. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.131786>.
3. Adams, C. A. The sustainable development goals, integrated thinking and the integrated report / C. A. Adams. – ICAS, 2017. – URL: https://www.icas.com/__data/assets/pdf_file/0010/336475/SDGs-and-the-integrated-report_full17.pdf.
4. Левина, В. С. Зарубежная практика регулирования и тенденции формирования нефинансовой отчетности / В. С. Левина // Актуальные вопросы современной экономики. – 2021. – № 5. – С. 537–553.
5. Гафурова, Д. А. Нефинансовая отчетность: понятие, стандарты регулирования и вопросы процесса формирования / Д. А. Гафурова, Т. А. Корнеева // Вестник Самарского государственного экономического университета. – 2025. – № 4. – С. 40–49.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
